

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

11-maxsus  
son (5-jild)

**2025**

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING  
DOLZARB MUAMMOLARI**

***№ S/11 (5) – 2025***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

#### *12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

#### *13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

#### *19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

#### *22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

#### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

## **OAK Ro'yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

### **Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

### **Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI***Rahmankulova Adolat Xushbakovna*

ПРОБЛЕМЫ РЕАБИЛИТАЦИИ НАСИЛЬСТВЕННО ПЕРЕСЕЛЕННЫХ НАРОДОВ

В УЗБЕКИСТАН В 1930 – 1940-е ГОДЫ..... 11-19

*Назирхожаев Мухаммадалихожа Касимхожаевич*

ФОРМИРОВАНИЕ И ОРГАНИЗАЦИЯ ЛАГЕРЕЙ ДЛЯ СОДЕРЖАНИЯ ЯПОНСКИХ

ВОЕННОПЛЕННЫХ В СОВЕТСКОМ СОЮЗЕ..... 20-29

*Kaypova Malika Dautbay qizi*

MUSTAQILLIQ YILLARIDA TURIZM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR..... 30-33

*Sobirova Dilfuza, Mirzaaxmedov Xabibullo, Odiljonov Xayitali*

QO'QON XONLIGINING DIPLOMATIK ALOQALARI ..... 34-39

*Raupova Mushtariybegim Ilxomjon qizi*

TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGINING MA'MURIY-HUDUDIIY BOSHQARUVI

TARIXSHUNOSLIGI ..... 40-47

*Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы*

ДИПЛОМАТИЯ И ТОРГОВЛЯ НА ПЕРИФЕРИИ ИМПЕРИЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ

ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ

МУХАММАД РАХИМХАНА I (1806–1825) ..... 48-54

*Рузибоев Самандарбек, Ахмадбекова Ўғилой*

НАУЧНО-ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ АБУ РАЙХОНА БЕРУНИ

«АЛ-АСАР АЛЬ-БАКИЯ»: МЕТОДОЛОГИЯ, ИСТОЧНИКИ И КУЛЬТУРНО-

ХРОНОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗЗРЕНИЯ ..... 55-64

*Tilovov Mirqosim Amanturdiyevich*

OLTINSOY TUMANI ARXEOLOGIK XARITASI ..... 65-70

*Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li*

O'ZBEKISTONDA NEFT VA GAZ SANOATI TARIXI (1900-1950 YILLAR) ..... 71-76

*Abdurasulov Akmaljon*

TURKISTONDA MATBAACHILIKNING VUJUDGA KELISHIDAGI HAMKORLIK

ALOQALARI TARIXI..... 77-86

*Abatov Aydos*

QORAQALPOG'ISTONDA SANOATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH

BOSQICHLARI (XX ASR II YARMI) ..... 87-90

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI***Pirmatova Farangiz Ma'rufjonovna*

THE EFFECTS OF GREEN ECONOMY IMPLEMENTATION ON ECONOMIC GROWTH

IN DEVELOPING COUNTRIES..... 91-99

*Jumabayev Adilbek Bazarbayevich*

WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF REGIONAL ECONOMIC POTENTIAL ..... 100-107

|                                                                                                                                                                                                    |         |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Jaxbarov Jamshidbek Tilavoldi o'g'li</i><br>BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NAZORATNI RAQAMLI<br>TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH .....                                      | 108-114 |
| <i>Fayzieva Dilyora Shamsitdin kizi,</i><br>INSTITUTIONAL PRISM OF DIGITAL DIVIDENDS:<br>THE IMPACT OF HUMAN CAPITAL AND "ANALOG COMPLEMENTS"<br>ON THE DYNAMICS OF SOCIO-ECONOMIC INEQUALITY..... | 115-123 |
| <i>Турдыев Гайрат Ялгашевич</i><br>РАЗВИТИЕ АВТОКОЛОНИ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В УСЛОВИЯХ<br>ТРАНСПОРТНЫХ РЕФОРМ: ИСТОРИЧЕСКИЙ И СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАПЫ.....                                           | 124-129 |
| <b>09.00.00 – FALSAFA FANLARI</b>                                                                                                                                                                  |         |
| <i>Xolmirzaev Nodirjon Nizomjonovich</i><br>SHAHAR AHOLISINING IJTIMOY MUAMMOLARINING IJTIMOY FALSAFIY TAHLILI ..                                                                                  | 130-134 |
| <i>Kenjayeva Dilrabo Rominovna</i><br>INSONIYAT TARIXI VA DINIY BAG'RIKENGLIK .....                                                                                                                | 135-139 |
| <i>Karimov Raxmat Raxmanovich</i><br>СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МЕЖЦИВИЛИЗАЦИОННОЙ<br>ФИЛОСОФИИ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ .....                                                                         | 140-146 |
| <i>Ergashev Urolbek Berkinovich</i><br>NAZARIY FALSAFANI TASNIFLASHDA AHMAD TOSHKO'PRIZODA YONDASHUVI.....                                                                                         | 147-151 |
| <i>Raximdjanova Dilnavoz Sunnat qizi</i><br>IBN RUSHDNING TAFAKKUR ERKINLIGI HAQIDAGI QARASHLARI.....                                                                                              | 152-155 |
| <i>Abdunazarov Lutfillo Mamanovich</i><br>YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI<br>RIVOJLANTIRISHNING ZARURATI .....                                                            | 156-160 |
| <i>Tangirov Nizom Abduraxmonovich</i><br>NOOSFERA VA BARQAROR RIVOJLANISH PARADIGMASINING<br>FALSAFIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....                                                                   | 161-166 |
| <i>Yusupova Nargiza Ro'stamovna</i><br>O'ZBEK ETNOMUSIQASIGA OID TARIXIY MANBA VA MUTAFAKKIRLAR<br>ETNOMUSIQA BORASIDAGI QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI.....                                      | 167-172 |
| <i>Xudoykulov Azamat Beshumovich</i><br>MA'NAVIY BARKAMOL YOSHLAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA<br>G'OYAVIY TARBIYANING O'RNI .....                                                              | 173-177 |
| <i>Xamdamov Behzod</i><br>ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR DUNYOQARASHIDA VATANPARVARLIK<br>G'OYALARINING FALSAFIY-TARIXIY ASOSLARI .....                                                                 | 178-185 |
| <i>Bekchanov Sanjar Ibragimovich</i><br>"MODERNIZATSIYA" TUSHUNCHASINING IJTIMOY-FALSAFIY MOHIYATI:<br>ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA MILLIY KONSEPSIYALAR.....                                         | 186-190 |
| <i>Adizov Azim Tolibovich</i><br>IJTIMOIY KONFRONTATSIYANING TUZILISHI VA DINAMIKASI.....                                                                                                          | 191-196 |

|                                                                                                                                    |         |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Eshmurodov Nabillo</i><br>GLOBALLASHUV JARAYONIDA SHAXS MA'NAVİYATINING TRANSFORMATSIYASI<br>VA BEGONALASHUV MUAMMOSI .....     | 197-201 |
| <i>Yokubov Suxrob Firdavsovi</i><br>TASAVVUF TA'LIMOTINING G'OYAVIY MANBALARI .....                                                | 202-206 |
| <i>Najimidinova Dilnoza Gulomjonovna</i><br>GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEK MILLIY OILASINING<br>IJTIMOIY-FALSAFIY MASALALARI ..... | 207-210 |
| <i>Otokulov Abror Sobirkulovich</i><br>JAMIYATDA MA'NAVIY-AXLOQIYLIKNI YUKSALTIRISHDA SHAXS<br>MAS'ULIYATINI OSHIRISH OMILI .....  | 211-217 |

#### **10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

|                                                                                                                                                                                                                                    |         |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Maxamadaliyeva Zuxra Baxrom qizi, Adilova Nasiba Raximboy qizi</i><br>INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MADANIY METAFORALARNING MOHIYATI .....                                                                                         | 218-222 |
| <i>Xusainova Zilola Yuldashevna, Yangibayeva Surayyo Gulumboyevna</i><br>DIAXRON KORPUS ALGORITMLARI .....                                                                                                                         | 223-228 |
| <i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i><br>POLITICAL EXILE AND PERSONAL IDENTITY IN LORD BYRON'S LIFE AND WORK .....                                                                                                                  | 229-233 |
| <i>Karimova Ozodaxon Avazxon qizi</i><br>A LINGUO-PRAGMATIC STUDY OF INFORMAL SPEECH IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES:<br>COMPARATIVE ANALYSIS OF COMMUNICATIVE STRATEGIES,<br>SOCIOCULTURAL CONTEXTS, AND PRAGMATIC FUNCTIONS ..... | 234-240 |
| <i>Айтмуратова Турсынай Маратовна</i><br>КОНЦЕПТ «ТРУД» В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ .....                                                                                                                                   | 241-244 |
| <i>Fayzullayeva Zebuniso Abdukarimovna</i><br>KONYUNKTIVNING SEMANTIK-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI .....                                                                                                                                | 245-248 |
| <i>Sodikova Vasilakhon, Gavharoy Isroiljon qizi</i><br>THE ISSUES OF INFORMATION SECURITY AND RELIABILITY<br>IN MODERN JOURNALISM .....                                                                                            | 249-258 |
| <i>Холикова Замира</i><br>СРАВНИТЕЛЬНО-СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ<br>С КОМПОНЕНТОМ-ЗООНИМОМ «СОБАКА» В РУССКОМ<br>И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ .....                                                                             | 259-272 |

#### **12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

|                                                                                                                                                                                                                                                              |         |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Турсунова Маликахон Улугбековна</i><br>СООТНОШЕНИЕ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ РАНГОВ С КВАЛИФИКАЦИОННЫМИ<br>КЛАССАМИ ДОЛЖНОСТЕЙ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН:<br>НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ЗНАЧЕНИЯ КЛАССОВ И РАНГОВ В ДИПЛОМАТИЧЕСКОЙ<br>ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ..... | 273-286 |
| <i>Karaketova Dilnoza Yuldashevna</i><br>JINOYAT SUBYEKTINI TAVSIFLOVCHI BELGI SIFATIDA RETSIDIV .....                                                                                                                                                       | 287-294 |
| <i>Мируктамова Феруза Лутфуллаевна</i><br>ПРАКТИКА ЗАРУБЕЖНЫХ ГОСУДАРСТВ ПО ЗАЩИТЕ ПРАВ И БЕЗОПАСНОСТИ<br>ДЕТЕЙ ОТ ИНФОРМАЦИОННЫХ УГРОЗ .....                                                                                                                | 295-300 |

|                                                                                                                                                                                             |         |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i><br>MULK HUQUQIDAN VOZ KECHISHNING AYRIM MASALALARI.....                                                                                                  | 301-309 |
| <i>Akayeva Marapat Abduxalikovna</i><br>FUQAROLIK HUQUQIDA ASSOSSIZ BOYLIK ORTTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA ...                                                                         | 310-317 |
| <i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i><br>ENERGETIKA SEKTORIDA ATROF-MUHITGA TA'SIRNI BAHOLASH TIZIMINI<br>SHAKLLANTIRISHNING HUQUQIY SHART-SHAROITLARI.....                            | 318-326 |
| <i>Jiyenbayev Baxadir Ospanovich</i><br>EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA'MINLASHGA DOIR HUQUQIY<br>NORMALARNING ILMIY VA NAZARIY MOHIYATI .....                                                  | 327-332 |
| <i>Шомуратова Пальмира Комил қизи</i><br>РЕАЛИЗАЦИЯ ПРИНЦИПА СОСТЯЗАТЕЛЬНОСТИ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ:<br>ПРЕДЕЛЫ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ УСИЛЕНИЯ .....                                       | 333-339 |
| <i>Калдарбеков Асылжан Оспанович</i><br>РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ И ПРАВОВАЯ ОХРАНА ЗЕМЕЛЬ ЛЕСНОГО ФОНДА:<br>СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ОПЫТ КАЗАХСТАНА И УЗБЕКИСТАНА .....                             | 340-351 |
| <i>Istamova-Fayzullaeva Dilafruz Oybek qizi</i><br>SOMATIK HUQUQLARNING NAZARIY TALQINI:<br>GERMANIYA VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI ASOSIDA QIYOSIY HUQUQIY TAHLIL .....                         | 352-359 |
| <i>Urakov Djaxongir Rajabovich</i><br>PROKURATURA ORGANLARINING YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR<br>PROFILAKTİKASINI AMALGA OSHIRISH BORASIDA HAMKORLIK FAOLIYATI .....                   | 360-365 |
| <i>Байтурова Ауда Набиевна</i><br>СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ<br>ЭКОТУРИСТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....                               | 366-373 |
| <i>Xushvaqtov O'tkir Temirovich</i><br>VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGI TUSHUNCHASI<br>NAZARIY VA QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI .....                                                            | 374-382 |
| <i>Mustafaqulov Dilshod Salomovich</i><br>NORMA IJODKORLIGI JARAYONIDA QONUNIYLIK PRINSIPI .....                                                                                            | 383-389 |
| <i>Nomazov Ixtiyor Ismailovich</i><br>ISBOT QILISH ELEMENTI SIFATIDA KO'RSATUVLARNI OLDINDAN<br>MUSTAHKAMLAB QO'YISH .....                                                                  | 390-394 |
| <i>Xoliqnazarov Farhod Bozor o'g'li</i><br>INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI JINOIY-HUQUQIY HIMOYA QILISH MASALALARI ...                                                                           | 395-399 |
| <i>Normuratov Aktam Tulaboy o'g'li</i><br>OLIY TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JALB QILISHNI<br>TAKOMILLASHTIRISH.....                                                   | 400-403 |
| <i>Шомахсудов Шоакрам Шомуратович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i><br>ОСОБЕННОСТИ ПОЛУЧЕНИЯ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ КОМПЬЮТЕРНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ<br>ЭКСПЕРТИЗЫ ПРИ РАССЛЕДОВАНИИ КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ ..... | 404-411 |
| <i>Rasulov Baxtiyor Shavkatovich</i><br>O'ZBEKISTONDA ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH<br>VA EKOLOGIK NAZORATNI KUCHALTIRISH MASALALARI.....                                              | 412-418 |

|                                                                                                                                                                                                                 |         |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Javlijeva Gullola Abdurahim qizi</i><br>IJARA MEHNATI — NOTIPIK MEHNAT MUNOSABATLARINING SHAKLI SIFATIDA.....                                                                                                | 419-425 |
| <i>Babaeva Irodakhon Erkinjon qizi</i><br>ISSUES OF IMPLEMENTING INTERNATIONAL LEGAL NORMS<br>IN THE FIELD OF CLIMATE CHANGE INTO THE NATIONAL LEGISLATION<br>OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN .....               | 426-434 |
| <i>Ядгаров Шахрух</i><br>ЮРИДИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ШАНХАЙСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК<br>СУБЪЕКТА МЕЖДУНАРОДНОГО ПРАВА.....                                                                                    | 435-439 |
| <b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>                                                                                                                                                                            |         |
| <i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i><br>FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING FIZIKA FANIDAN<br>NOSTANDART TOPSHIRIQLARNI BAJARISH ORQALI KASBIY KOMPETENTLIGINI<br>RIVOJLANTIRISH..... | 440-446 |
| <i>Ismaylov Azerbay Saparniyazovich</i><br>SUN'IY INTELLEKTNING TA'LIMDAGI O'RNI.....                                                                                                                           | 447-451 |
| <i>Xolmirzayeva Gulbahor Baxodirovna</i><br>MAKTABGACHA TA'LIMDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARNI MILLIY MODEL BILAN<br>UYG'UNLASHTIRISH MEXANIZMLARI.....                                                           | 452-457 |
| <i>Raximova Lolaxon Abduraximovna</i><br>TALABALARNING KLINIK QAROR QABUL QILISH KO'NIKMALARINI<br>SHAKLLANTIRISHDA BIOFIZIK DIAGNOSTIKA TEXNOLOGIYALARINI<br>INTEGRATIV O'QITISH METODIKASI.....               | 458-462 |
| <i>Toshmamatova Munisa Toshmamatovna</i><br>UMUMTA'LIM FANLARIDAN DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT<br>TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING MAVJUD HOLATI TAHLILI.....                                      | 463-466 |
| <i>Raximdjanova Malikaxon Gapurdjanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna</i><br>INTERCULTURAL COMPETENCE AND REFLECTIVE LEARNING IN GLOBALIZED<br>HIGHER EDUCATION: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS.....                | 467-473 |

**Received:** 1 December 2025  
**Accepted:** 15 December 2025  
**Published:** 30 December 2025

*Article / Original Paper*

## **RENTAL LABOR — AS A FORM OF ATYPICAL LABOR RELATIONS**

**Javliyeva Gullola Abdurahim qizi**

Tashkent State University of Law

PhD student

**Abstract.** This article is devoted to the analysis of the legal nature of loan labour (autstaffing, temporary agency work, outsourcing) as one of the forms of non-standard employment emerging in the context of the transformation of modern labour relations. The study examines the concept of loan labour, its main forms, and the specific features inherent in triangular employment relationships. The complex legal nature of loan labour relations, characterized by the interaction of civil law and labour law elements, is substantiated.

In addition, a comparative legal analysis of the relevant documents of the International Labour Organization and the labour law norms of the European Union regulating loan labour is conducted, which substantiates the necessity of harmonizing national legislation with international labour standards. The conclusions of the study propose scientific and practical recommendations aimed at improving the legal regulation of loan labour.

**Keywords:** loan labour, autstaffing, outsourcing, temporary agency work, non-standard employment, triangular employment relationships.

## **IJARA MEHNATI — NOTIPIK MEHNAT MUNOSABATLARINING SHAKLI SIFATIDA**

**Javliyeva Gullola Abdurahim qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti

Tayanch doktoranti

<http://www.orcid.org/0009-0008-8686-9933>

E-mail: [2000javliyevagullola@gmail.com](mailto:2000javliyevagullola@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqola zamonaviy mehnat munosabatlari transformatsiyasi sharoitida shakllanib borayotgan notipik mehnat munosabatlaridan biri — ijara mehnatining (autstaffing, vaqtinchalik agentlik mehnati, outsorsing) huquqiy mohiyatini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda ijara mehnati tushunchasi, uning asosiy shakllari va uch tomonlama mehnat munosabatlari doirasidagi o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Ijara mehnati munosabatlarining kompleks huquqiy tabiatga egaligi, ya'ni fuqarolik-huquqiy va mehnat-huquqiy elementlarning o'zaro uyg'unligi asoslab berilgan.

Shuningdek, ijara mehnatini tartibga solish bo'yicha Xalqaro Mehnat Tashkiloti hujjatlari va Yevropa Ittifoqi mehnat huquqi normalari bilan qiyosiy-huquqiy tahlil o'tkazilib, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish zarurati asoslab berilgan. Tadqiqot xulosalarida ijara mehnatini huquqiy jihatdan takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** ijara mehnati, autstaffing, outsorsing, vaqtinchalik agentlik mehnati, notipik mehnat munosabatlari, uch tomonlama mehnat munosabatlari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI11Y2025N60>

Global mehnat bozorining transformatsiyasi natijasida an'anaviy mehnat munosabatlari bilan birgalikda vaqtinchalik, masofaviy, platforma orqali amalga oshiriluvchi va agentlik orqali bandlik kabi notipik mehnat munosabatlari kengaymoqda. Ularning ichida — **ijara mehnati** (temporary agency work, loaned labour) — muvaqqat yoki uchinchi tomon orqali tashkil

etiladigan mehnat munosabatlari guruhiga kiradi. Ushbu munosabatlar mehnat huquqi, ijtimoiy himoya va ishchi huquqlarining ta'minlanishida qator yangi muammolarni keltirib chiqaradi; shu sababli ularni tadqiq qilish va huquqiy masalalarni aniq belgilash zarur.

XX asrning ikkinchi yarmi barqaror bandlikning gullab-yashnagan davri bo'ldi, uning asosida standart mehnat huquqiy munosabatlari yotadi. Ushbu konsepsiya doirasida har qanday xodim ish beruvchi tomonidan to'g'ridan to'g'ri doimiy asosda ishga qabul qilinishi kerak. Inson barcha ish vaqtini (yoki uning katta qismini) bitta ish beruvchida va uning nazorati ostida o'tkazadi, u uzoq vaqt yoki butun umr bitta ish beruvchida ishlaydi, ko'plab (garchi hammasi bo'lmasa-da) xodimlar kasaba uyushmalariga birlashgan, asossiz ishdan bo'shatilishdan himoyalangan, ish haqi asta-sekin oshadi, va bu barqaror rivojlanishning kafolati hisoblanadi, deb taxmin qilingan.

Aynan shu konsepsiya Xalqaro mehnat tashkilotining barcha norma ijodkorligi asosini tashkil etadi. Shuni ta'kidlash kerakki, uning davlatlar va biznes tomonidan qabul qilinishi uzoq vaqt davomida deyarli so'zsiz bo'lib, hech qanday qarshilikka uchramadi. Ushbu yondashuvga asoslangan Xalqaro Mehnat Tashkilotining 1982-yildagi 158-sonli "Mehnatga oid huquqiy munosabatlarni tugatish to'g'risida"gi konvensiyasi yakdil qo'llab-quvvatlandi. Ammo keyinchalik standart mehnat huquqiy munosabatlariga bo'lgan munosabat o'zgara boshladi. Masalan, XMT tavsiyasi "Mehnatga oid huquqiy munosabatlar to'g'risida"gi qonun 2006-yilda uzoq davom etgan munozaralardan so'ng qabul qilingan edi.

1970-yillarning o'rtalaridan boshlab mehnat munosabatlari va u bilan bog'liq huquq sohalariga bosim o'tkazishga olib kelgan sezilarli iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar boshlandi. G'arbda urushdan keyingi iqtisodiy tiklanish davri yakunlandi, barqaror o'sish davri o'tdi. 1970-yillardagi iqtisodiy inqiroz jamiyatda mehnat bozorida ko'proq "moslashuvchanlik"ni joriy etish zarurligi haqidagi munozaralarni keltirib chiqardi. "Birinchi to'lqin" mehnat qonunchiligida islohotlar o'tkazildi, uning doirasida davlatlar bandlikning notipik shakllaridan kengroq foydalanishga ruxsat bera boshladilar va hatto rag'batlantira boshladilar.

Standart mehnat munosabatlariga yondosh o'laroq, tobora keng tarqalayotgan nostandart (notipik, noan'anaviy) mehnat munosabatlari deganda an'anaviy mehnat munosabatlardan turli kombinatsiyalarda chetga chiqqan holda yollanma mehnatni jalb qilishning har qanday shakllari tushuniladi. Nostandart bandlik shakllari juda xilma-xil bo'lib, ular qonunchilikda e'tirof etilgan to'liq qonuniy shakllarni ham, huquq doirasidan chetga chiquvchi shakllarni ham o'z ichiga oladi. Ularga bir yoki bir nechta belgilar bo'yicha standart ishlardan farq qiladigan ish turlari kiradi: mehnat shartnomasining muddati bo'yicha (muddatli mehnat shartnomalari); ish vaqtining davomiyligi bo'yicha (to'liqsiz ish vaqti); ish bajarish joyi bo'yicha (an'anaviy kasanachilikdan zamonaviy masofaviy mehnatgacha); kunlik ish, chaqiruv bo'yicha ish, ijara mehnati va boshqalar.

Ijara mehnati — bu uch tomonli munosabatni (xodim — agentlik/ish beruvchi — qabul qiluvchi / buyurtmachi) o'zida aks ettiruvchi bandlik shakli hisoblanadi. Agentlik xodimni yollaydi va uni mijoz tashkilotga vaqtinchalik yuboradi; xodim ijara davrida agentlik bilan mehnat munosabati davomida qoladi, ammo ishni kundalik ravishda qabul qiluvchi tashkilotda bajaradi.

Ilmiy yuridik adabiyotlarda ijara mehnati deganda mehnat shartnomasi asosida tashkilot — yuridik ish beruvchi bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan xodimning ushbu

tashkilot bilan uchinchi shaxs o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq uchinchi shaxs foydasiga bajaradigan mehnati tushuniladi. Xususan, Ya.V. Krivoy ijara mehnatini "bandlik agentligi bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan xodimlarning ish foydalanuvchi tashkilotga vaqtincha ishlarni bajarish uchun vaqti-vaqti bilan yuboriladigan, bunda ular ushbu tashkilot rahbarligi ostida hamda uning ichki mehnat tartibiga bo'ysungan holda mehnat qiladigan faoliyati» sifatida ta'riflaydi"[6].

Shunga o'xshash, biroq yanada batafsil ta'rifni A.E. Korkin taklif etadi va u qarzga olinadigan mehnatni "mehnat shartnomasini bir shaxs (asosiy ish beruvchi) bilan tuzgan va ishni boshqa shaxs (foydalanuvchi tashkilot) foydasiga, uning hududida hamda uning nazorati ostida bajaradigan xodim mehnati bo'lib, bunda foydalanuvchi tashkilot xodimga nisbatan ish beruvchining ayrim huquq va majburiyatlarini amalga oshiradi hamda ular asosiy ish beruvchi bilan xodim mehnatini taqdim etish to'g'risida tuzilgan fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida unga o'tkaziladi"[7] deb ko'rsatadi.

Yuridik adabiyotlarda ijara mehnatining quyidagi shakllari ajratiladi: autsorsing, autstaffing, vaqtinchalik agentlik mehnati. "Yevropa davlatlarida ijara mehnati ko'p tomonlama mehnat munosabati sifatida dispatchet work, subcontracting, brokerage, temporary agency work"[9] nomlari ostida qo'llaniladi.

Autsorsing (inglizcha outsourcing — tashqi manba va/yoki resurslardan foydalanish) tashkilot tomonidan o'zining asosiy faoliyatiga kirmaydigan ayrim funksiyalarni hamda ishlab chiqarish faoliyatining ayrim turlarini boshqa tashkilotlarga (autsorserlarga) topshirishni anglatadi. Autsorser ushbu funksiyalar va faoliyat turlarini asosiy tashkilot bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq, uning topshirig'iga asosan bajaradi[5].

Autsorsingning vazifasi autstaffingning "profil" faoliyatiga e'tibor qaratish uchun tashkiliy, moliyaviy va inson resurslarini bo'shatishdan iborat. Ko'pincha kadrlar va buxgalteriya hisobini yuritish, ofis faoliyatini ta'minlash, tarjimonlik, transport va reklama xizmatlari, kompyuter tarmog'i va axborot infratuzilmasi ishini qo'llab-quvvatlash, xavfsizlikni ta'minlash, autstaffer faoliyatini huquqiy qo'llab-quvvatlash, qo'riqlash, tozalash, xodimlarning ovqatlanishini tashkil etish autsorsingga o'tkaziladi.

Mamlakatimizda ham bugungi kunda autsorsing keng tarzda qo'llanilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-avgustdagi 693-sonli qaroriga ilovada "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining tegishli bo'linmalarida ovqatlanishni tashkil etish bo'yicha autsorsing xizmatlari ko'rsatish tartibi to'g'risida" Nizomi[3], Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-yanvardagi 16-sonli qaroriga 2-ilovasi bilan "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tuzilmasidagi tashkilotlarda autsorsing xizmatlari ko'rsatish tartibi to'g'risidagi" Nizom[4] lar tasdiqlandi. Shuningdek, 2025-yil 18-noyabrdagi F-59-son "Davlat korxonalarida tannarxni kamaytirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishining[1] 4-ilovasi bilan Davlat korxonalarida autsorsing asosida bajarilishi lozim bo'lgan funktsiya va xizmatlar ro'yxati tasdiqlangan bo'lib, unda qorovullik, klining, buxgalteriya, yuridik maslahat, kadrlar bo'yicha hujjat yuritish, marketing, rekrutning kabi 20ta xizmat turi autsorsing asosida bajarilishi belgilandi.

Vaqtinchalik agentlik mehnati — xodimni qisqa muddatga (odatda, muayyan loyihani amalga oshirish yoki mavsumiy ishlarni bajarish davriga) taqdim etishni anglatadi. Ushbu ijara

mehnati shaklining o'ziga xosligi shundaki, xodim kadrlar agentligi tomonidan tanlanadi va faqat cheklangan vaqt orasida uning mehnati boshqa tashkilotga taqdim etiladi.

“Bandlik sohasida xizmatlar, shu jumladan ish izlash va xodimlarni tanlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi xususiy bandlik agentligi ushbu sxemada jismoniy yoki yuridik shaxs bo'lishi mumkin bo'lgan uchinchi tomon (bundan keyin “foydalanuvchi korxona”) ixtiyoriga berish maqsadida xodimlarni yollash bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi, ularga ish topshiriqlarini belgilovchi va ularning bajarilishini nazorat qiluvchi davlatdan mustaqil jismoniy yoki yuridik shaxsni (bundan keyin “korxona-foydalanuvchi”) ifodalaydi”[12].

Autstaffing (outstaffing) esa tashkilot xodimlarining bir qismini shtatdan chiqarib, ularni xususiy bandlik agentligiga topshirishni nazarda tutadi. Bunda agentlik rasmiy ravishda ish beruvchi funksiyalarini o'z zimmasiga oladi, biroq xodimlar avvalgidek o'zlarining “asosiy” kompaniyasi manfaatlari yo'lida, uning boshqaruvi va nazorati ostida mehnat faoliyatini amalga oshiradilar. Ushbu holatda xususiy bandlik agentligi xodimlarga nisbatan yuridik va ijtimoiy majburiyatlarni bajaradi, ammo, qoida tariqasida, bu majburiyatlar agentlikning o'z mablag'lari hisobidan emas, balki autstaffing xizmatlari uchun buyurtmachi tomonidan to'langan mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi[11].

“Autstaffing” atamasi inglizcha “outstaffing” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “outsourcing” va “staff” so'zlaridan tashkil topgan. Bu atama ma'lum turdagi ishlarni bajarish uchun xodimlarni taqdim etish xizmatini anglatadi. Yevropa mamlakatlarida bu xizmat turi “subcontracting” (subpudrat) yoki “offshoring” deb nomlanadi. Avstraliyada esa “talent outsourcing” (iste'dodlar autsorsingi) yoki “hiring a contract worker” (shartnomali ishchini yollash) deb ataladi.

Olimlar orasida autstaffing ta'rifi bo'yicha yagona fikr shakllanmagan. Ko'pchilik mualliflar uni ikki tomon o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlar emas, balki ma'lum bir hodisa sifatida ko'rib chiqadilar[10].

V. K. Makarovich autstaffing ta'rifi ilmiy yondashuvlarni tahlil qilib, quyidagilarni ajratib ko'rsatadi: xodimlarni keyinchalik boshqa ish beruvchida ishlashlari uchun yollaydigan xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati; xodimlarni kompaniya shtatidan chiqarish va ularni autstafer kompaniyasi shtatiga o'tkazish, so'ngra bu xodimlarni autstafer nomidan buyurtmachi tashkilotga haq evaziga taqdim etish; bu autstaffing kompaniyasining vaqtinchalik foydalanish uchun xodimlarni taqdim etish, kadrlar, buxgalteriya, maslahat yordamini ko'rsatishni o'z ichiga oluvchi xizmatlar majmuasi bo'lib, bunda autstafer xodimlar uchun huquqiy va moliyaviy javobgarlikni o'z zimmasiga oladi[8].

Jahon amaliyotida autstaffing Xalqaro Mehnat Tashkilotining 1997-yil 19-iyundagi 181-sonli “Xususiy bandlik agentliklari to'g'risida”gi konvensiyasi bilan tartibga solinadi. Unga ko'ra, xususiy bandlik agentliklari ishchilarni uchinchi tomonga berish maqsadida yollash huquqiga ega, bu uchinchi tomon jismoniy yoki yuridik shaxs bo'lishi mumkin, u ishchilarga vazifalarni belgilaydi va ularning bajarilishini nazorat qiladi.

Ishlab chiqarishning globallashuvi autstaffing, autsorsing, xodimlar lizingi kabi nostandart bandlik shakllariga bo'lgan talabning oshishiga olib keldi. Hozirgi kunda AQShdagi kichik va o'rta korxonalarning 92 foizi autsorsing va autstaffing shartnomalari orqali o'z xodimlarining bir qismini shtatdan tashqariga chiqargan. Yevropada bu ko'rsatkich 86 foizni tashkil etadi.

Autstaffing xizmati IT-mutaxassislar, buxgalterlar, yuristlar, tahlilchilar, mavsumiy ishchilar va boshqalarni jalb qilish uchun faol qo'llaniladi. O'zbekistonda autstaffing mexanizmi, odatda, chet elda joylashgan kompaniyalar byudjetidan moliyalashtiriladigan loyihalarga mahalliy mutaxassislarni jalb etishni nazarda tutadi. Butun dunyo amaliyoti ham ichki, ham davlatlararo autstaffing variantlarini ko'zda tutadi.

Buyurtmachi uchun ish jarayonini tashkil etishning noan'anaviy shakli sifatida autstaffingning afzalliklari quyidagilardan iborat: jalb qilingan xodimlarga nisbatan ijtimoiy-mehnat majburiyatlaridan qutulish imkoniyati; soliq yukining kamayishi; qisqa muddatli loyihalarga yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish imkoniyati; arzonroq ishchi kuchidan foydalanish imkoniyati; xodimlar uchun ish joyini tashkil etish zarurati yo'qligi; xorijiy mehnat bozoriga kirish imkoniyati va hokazo.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 706-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Autstaffing xizmatlarini ko'rsatish tartibi to'g'risida"gi Nizom[2] autstaffing (xodimlarni boshqa tashkilotga vaqtincha yuborish) xizmatlarini ko'rsatish tartibini belgilovchi asosiy normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi. Ushbu nizom autstaffing faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish, xodimlarning mehnat huquqlari va ijtimoiy kafolatlarini himoya qilish, noqonuniy mehnat vositachiligining oldini olish, autstaffing xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlar faoliyati ustidan davlat nazoratini ta'minlashga xizmat qiladi.

Autstaffing uch tomonlama munosabatlarni nazarda tutadi: autstaffer (xodimning rasmiy ish beruvchisi); qabul qiluvchi tashkilot (xodim mehnatidan amalda foydalanuvchi); xodim. Nizomga ko'ra xodim mehnat shartnomasini autstaffer bilan tuzadi. Qabul qiluvchi tashkilot bilan fuqarolik-huquqiy shartnoma tuziladi. Xodim qabul qiluvchi tashkilot hududida ishlaydi, biroq mehnat munosabatlari autstaffer bilan saqlanib qoladi.

Nizomda xodimlarning ish haqi, ta'til, ijtimoiy sug'urta, mehnatni muhofaza qilish huquqlari saqlanishi, mehnat sharoitlari mehnat qonunchiligiga mos bo'lishi, majburiy ijtimoiy badallar to'lanishi belgilangan. Ushbu Nizomning asosiy yutuqlari sifatida ilgari norasmiy yoki yashirin tarzda amalga oshirilgan mehnat munosabatlarning qonuniylashtirilgani, xodimlarning huquqiy maqomi hamda ularning rasmiy ish beruvchisi aniq belgilangani, noqonuniy mehnat vositachiligiga qarshi samarali mexanizm yaratilgani, mehnat bozorida moslashuvchanlik oshirilgani, ish beruvchilar uchun vaqtinchalik va mavsumiy ishlarni tashkil etishda qulay huquqiy asos vujudga keltirilgani hamda biznes ehtiyojlari bilan bandlik manfaatlari o'rtasida muvozanat ta'minlangani e'tirof etiladi.

Ushbu Nizom autstaffing xizmatlarini faqat yuridik shaxslarga ko'rsatish bilan cheklashi natijasida amaliyotda keng tarqalgan jismoniy shaxslar foydasiga ijara mehnatini huquqiy tartibga solishdan chetda qoldirmoqda. Holbuki, oshpaz, uy xizmatchisi, bola yoki qariyalar parvarishlovchisi kabi xodimlar mehnatini agentlik orqali jismoniy shaxslarga taqdim etish mazmunan ijara mehnati belgilariga to'liq mos keladi. Mazkur munosabatlarning qonunchilikda qamrab olinmasligi xodimlarning mehnat huquqlari va ijtimoiy kafolatlari yetarli darajada ta'minlanmasligiga olib kelmoqda. Shu bois ijara mehnatini to'liq huquqiy tartibga solish va xodimlarni samarali himoya qilish maqsadida autstaffing xizmatlarini jismoniy shaxslarga ko'rsatish tartibini qonunchilikda belgilash zarur.

Shuningdek Nizomda Jamoaviy mehnat huquqlariga oid normalar mavjud emas. Autstaffing xodimlarining kasaba uyushmalariga a'zoligi, jamoaviy kelishuvlardan foydalanishi masalasining o'ziga xosligi ochiq qolgan.

Qolaversa nizomda muddatlar bo'yicha aniqlik yetishmaydi. Nizomning 14-bandiga ko'ra Autstaffing shartnomasi orqali xodimlarni qabul qiluvchi tashkilotga yuborish muddati bir kalendar yil davomida to'qqiz oydan oshmasligi kerak. Taraflarning kelishuvi va xodimning roziligi bilan ushbu bandning birinchi xatboshisida ko'rsatilgan muddat uzaytirilishi mumkin. Autstaffing shartnomasining uzaytirish chegaralari, ya'ni uzaytirishning maksimal muddati, normativ tarzda mustahkamlanmagan. Bu vaqtinchalik bandlikning doimiy ekspluatatsiyaga aylanib qolishiga sabab bo'ladi.

Nizomda tekshiruv mexanizmlari, monitoring indikatorlari, shikoyatlarni ko'rib chiqish tartibi batafsil ishlab chiqilmagan bo'lib bu nazorat va monitoring mexanizmlarining sustligini ko'rsatadi. Xalqaro mehnat standartlari, xususan XMTning 181-son Konvensiyasi va Yevropa Ittifoqining 2008/104/EC Direktivasi tahlili shuni ko'rsatadiki, ijara mehnatini samarali tartibga solishning asosiy sharti — agentlik xodimlari uchun teng mehnat sharoitlari, mehnatni muhofaza qilish kafolatlari hamda foydalanuvchi subyektning oshirilgan javobgarligini ta'minlashdan iborat.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki ijara mehnati zamonaviy mehnat munosabatlari transformatsiyasining muhim ko'rinishlaridan biri bo'lib, u mehnat bozorida moslashuvchanlikni oshirish, ish beruvchilarning iqtisodiy ehtiyojlariga tezkor javob berish hamda bandlikning yangi shakllarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ijara mehnati an'anaviy (standart) mehnat munosabatlaridan chetga chiqishi bilan xodimlarning mehnat huquqlari va ijtimoiy kafolatlari zaiflashuvi xavfini ham keltirib chiqaradi.

Tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida ijara mehnatini tartibga solish borasida muhim qadamlar qo'yilgan bo'lsa-da, xususan Vazirlar Mahkamasining 706-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom orqali autstaffing xizmatlari huquqiy jihatdan tan olingan va "teng mehnatga – teng haq" prinsipi mustahkamlangan bo'lsa-da, ushbu tartib to'liq va mukammal deb baholab bo'lmaydi. Amaldagi tartibda qabul qiluvchi tashkilotning subsidiar yoki solidar javobgarligi yetarli darajada aniqlashtirilmaganligi, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha majburiyatlarning aniq taqsimlanmaganligi, autstaffingdan foydalanish chegaralarining belgilanmaganligi hamda jismoniy shaxslar foydasiga ijara mehnatini huquqiy tartibga solishda bo'shliqlar mavjudligi aniqlangan.

Shu bois, xulosa sifatida aytish mumkinki, ijara mehnatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish, uni real mehnat munosabatlari bilan uyg'unlashtirish, xodimlarning mehnat huquqlari va ijtimoiy kafolatlarini kuchaytirish hamda xalqaro standartlarga moslashtirish O'zbekiston mehnat qonunchiligini rivojlantirishning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. 2025-yil 18-noyabrdagi F-59-son "Davlat korxonalarida tannarxni kamaytirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi;
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 706-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Autstaffing xizmatlarini ko'rsatish tartibi to'g'risida"gi Nizom;
3. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-avgustdagi 693-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining tegishli bo'linmalarida ovqatlanishni tashkil etish bo'yicha outsorsing xizmatlari ko'rsatish tartibi to'g'risida"gi Nizom;

4. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-yanvardagi 16-sonli qaroriga 2-ilova bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tuzilmasidagi tashkilotlarda outsorsing xizmatlari ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi” Nizom;
5. Delegeoz E. G. Pravovaya model zaemnogo truda //Voprosy rossiyskogo i mejdunarodnogo prava. – 2017. – T. 7. – №. 1A. – S. 233-240.
6. Krivoy Ya.V. Pravovoe regulirovanie zaemnogo truda: mejdunarodno-pravovoy, sravnitelnyy i natsionalnyy aspekty. Diss... kand. yurid. nauk. M., 2006;
7. Korkin A.E. Otnosheniya po primeneniю netipichnogo truda: ponyatie, vidy, obщie voprosy pravovogo regulirovaniya. Avtoref. diss... kand. yurid. nauk. SPb., 2012.;
8. Makarov V. K. Autstafing: oblikoviy aspekt. Naukoviy visnik Ujgorodskogo universitetu. Seriya: Ekonomika. 2019. № 1 (53). S. 233–236.
9. NON-STANDARD EMPLOYMENTnAROUND THE WORLD Understanding challenges, shaping prospects. [https://www.ilo.org/sites/default/files/wcmsp5/groups/public/%40dgreports/%40dcomm/%40publ/documents/publication/wcms\\_534326.pdf](https://www.ilo.org/sites/default/files/wcmsp5/groups/public/%40dgreports/%40dcomm/%40publ/documents/publication/wcms_534326.pdf)
10. Reznichenko S. V. Ponyattya dogovoru outsorsingu, yogo yuridichna xarakteristika ta vidi. Pivdennoukraïnskiy pravnichiy jurnal. 2014. № 1. S. 75–78.
11. Витко В.С., Цатурян Е.А. Юридическая природа договоров аутсорсинга и аутстаффинга. М.: Статут, 2012. 128 с.
12. Yevropa Ittifoqining 2008/104/-son Yevropa Ittifoqi vaqtinchalik bandlik agentliklarida mehnat to‘g‘risidagi Direktivasi

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ S/11 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).